

## О'ZBEKISTON IQTISODIYOTI TARAQQIY ETISHIDA TURIZMNING ROLI

*Muallif: Muxamedova Shahrizoda*

*O'zDJTU 2-bosqich talabasi*

*Ilmiy rahbar: F. Yuldasheva*

*O'zDJTU katta o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada jamiyatdagi aholi ma'lum bir qatlamining turizm sohasi va uning turlari, mamlakatda turizmning ahamiyati, undagi islohotlar haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lish, ushbu sohaning taraqqiyoti va insonlar ma'naviyatini yuksaltirishda bir vosita bo'lib xizmat qilishi haqida so'z boradi. Shuningdek, turizmning davlat iqtisodiyotidagi tutgan o'rni va ahamiyati haqida aytib o'tiladi.

**Kalit so'zlar:** Turizm, turizm turlari, O'zbekistondagi turizm holati va amalga oshirilgan chora-tadbirlar, turizm sohasidagi asosiy ko'rsatkichlar.

**Annotation:** In this article, there is a word about the tourism industry and its types, the importance of tourism in the country, the information about the reforms in the country, the development of this industry and how it serves as a tool for raising the morale of people. goes It is also mentioned about the place and importance of tourism in the state economy.

**Key words:** Tourism, types of tourism, the state of tourism in Uzbekistan and the implemented measures, the main indicators in the field of tourism.

**Аннотация:** В этой статье ни слова о туристической отрасли и ее видах, о значении туризма в стране, информация о реформах в стране, развитии этой отрасли и о том, как она служит инструментом поднятия морального духа люди идут Также упоминается о месте и значении туризма в экономике государства.

**Ключевые слова:** Туризм, виды туризма, состояние туризма в Узбекистане и реализуемые меры, основные показатели в сфере туризма.

Bilamizki, hozirgi kunda zamonamizning iqtisodiyoti rivojlangan deyarli barcha davlatlarda har bir soha, tarmoq va yo'nalishlarga alohida e'tibor berib kelinmoqda. Chunki, ular mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishi, aholi turmush holatining yaxshilanishi va boshqa bir qancha omillarga ma'lum bir ulushda hissa qo'shib, o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Bunday sohalar orasida asosiylaridan biri bu, shubhasiz, turizm sanaladi. Turizm bu bir davlatdan boshqasiga yoki bir viloyatdan boshqa viloyatga sayohat qilishning turlaridan biri bo'lib, bunda kishilar tashrif buyurgan mamlakatning urf-odatini, yashash tarzi, dini, ma'daniyatini o'rganishi va bundan tashqari biznes qilish, dam olish, o'z malakasini oshirish kabi boshqa maqsadlar uchun odatiy bo'lgan muhitdan tashqaridagi joylarga sayohat qilish tushuniladi. Masalan yuqoridagi

fikrimizga misol qilib, rekreatsion turizm, biznes turizm, ekskursiyaviy turizm, ekstremal turizm, madaniy va ma'rifiy turizm, VIP turizm, ya'ni qimmatli dam olish maskanlariga tashrif buyurish, ekoturizm, tog' turizmi, etnik turizm, dengiz turizmi va boshqalarni anglashimiz mumkin. Yuqorida ta'kidlangan turizmning har bir turidan kishi o'ziga xos zavq, quvonch, o'ziga ishonch hissini, mardlik va ma'naviyat kuchini, turli qiyinchiliklarni yengib o'tish va boshqa o'ta maroqli tarbiyaviy, ibratli his-tuyg'ularni olish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, turizm sohasi bir qator mintaqalarning iqtisodiyoti va madaniyatiga faol ta'sir ko'rsatdi. Ushbu tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning obyektivlik usulidan foydalanildi. Ya'ni ushbu holat orqali O'zbekiston iqtisodiyoti rivojlanishida turizmning ahamiyati obyektiv ochib berildi. Bugungi kundagi turizmning rivojlantirish bosqichlari mantiqiy izchillik jihatdan tadqiq qilindi va turizm sohasidagi qonunlar va turistik xizmatlar uchun xarajatlar nomli qarorlar metodologik jihatdan olindi. Yurtimizda boy ma'naviy-madaniy merosi, turli-tuman tarixiy-arxeologik ob'yektlari, qulay tabiiy-iqlim sharoiti, hududimizda har qanday landshaftlarini ko'rishimiz mumkin va shuningdek islom dunyosida tan olingan allomalarning maqbaralari, muqaddas qadamjolar ko'p. Ammo mamlakatimiz turizm sohasida ulkan salohiyatga ega bo'la turib, uzoq yillar bu imkoniyatdan to'liq va samarali foydalanilmadi. Prezidentimizning turizmga oid turli xil hujjatlar qabul qilingani davlatimizning turizm rivojiga yuksak e'tiboridan dalolat bo'ldi. Ushbu hujjatlar bilan sohada yig'ilib qolgan muommolarni hal etish, turizm salohiyatini oshirish bo'yicha ustuvor vazifalar belgilandi, ichki turizmni yanada rivojlantirishga ko'plab imtiyozlar, yengilliklar berildi. Shavkat Mirziyoyev turizmning iqtisodiyotdagi o'rnini alohida ta'kidlab, mamlakatimizda bu boradagi holat va sohani rivojlantirish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini birma-bir tahlil qildi. Turistlar yetarlicha sayohat qilish o'rniga ichki ishlar idoralarida sarson bo'layotgandi, ularga yetarlicha sharoit yaratilmayotgandi, "O'zbekiston havo yo'llari" talab darajasida emas edi, aeroportlarda eng kichik jihatlar turistlar kayfiyatiga salbiy ta'sir qilayotgan edi, mehmonxona soni kam va ko'rsatilayotgan xizmat a'lo darajada bo'lmayotganini, bir so'z bilan aytganda, turizm sohasida ulkan imkoniyatlar bo'lishiga qaramay, O'zbekistonning turizm infratuzilmasi, turizm xizmatlari sifati va uning darajasi globallashuvi keskin raqobat sharoitida zamonaviy talablarga mos kelmasligini Prezidentimiz tanqid qilib, ularga tegishlicha vazifalar belgilagan edi. Bugungi kunda esa ushbu soha bo'yicha amalga oshirilgan ishlarning samarasini ko'ryapmiz.[136 -144 betlar]

O'zbekistonda turizm sohasiga yetarlicha e'tibor qaratilib, kamchiliklarning oldini olishga harakat qilinmoqda. Shu asosda turizmning bir qancha turlari faoliyat olib bormoqda. Respublika hududidagi turizmning moddiy-texnik bazasi g'oyatda notekis taqisimlangan: respublikadagi barcha ishlab chiqarish salohiyatining 30 foiz qismi Toshkent shahri va Toshkent viloyatiga, 47 foizdan ortiq qismi Samarqand, Buxoro,

Xiva va Urganchga, taxminan 17 foizi Farg'ona vodiysiga to'g'ri keladi. Qolgan 7 foiz respublikaning boshqa mintaqalari o'rtasida taqsimlanadi. Ayniqsa, madaniy va ziyorat turizmining rivojlanishida qadimiy qiymatga ega bo'lgan Xorazm, Buxoro, Samarqand kabi shaharlarimizdagi tarixiy obidalar, me'moriy, diniy va madaniy yodgorliklar va respublikamizdagi boshqa zamonaviy diqqatga sazovor joylar bilan tanishtirish orqali ularga madaniy-ma'rifiy ma'lumotlar berish asos bo'lib xizmat qilgan. Olib borilgan tadqiqotlar natijasiga ko'ra mamlakatimizga tashrif buyurgan turistlarning asosiy qismi Buxoro, Samarqand, Xorazm va poytaxtimiz Toshkentga tashrif buyurishga qiziqsa, qolgan foizi esa respublikamizning boshqa viloyatlariga, ya'ni Namangan, Farg'ona, Andijon viloyatlariga sayohat qilishadi. Ammo bilamizki, pandemiya davrida sayyohlarning tashrif buyurishida o'zgarishlar bo'ldi. O'zbekistonga so'nggi 2021-yilda pandemiya sharoitida chet-el davlatlardan turistik maqsadda kelgan fuqarolar miqdori 1,6 million kishini tashkil etdi. Ushbu ko'rsatkich o'tgan yilgiga qaraganda 88.8 foizga kamaygan. Respublikamizga tashrif buyurgan xorijlik fuqorolarning asosiy safar maqsadlari o'z yaqinlarini yo'qlash bo'lib, 90.8 foizni tashkil etgan. Shu bilan birga, dam olish, davolanish, xizmat yuzasidan, o'qish uchun tashrif buyurganlar ham salmoqli qismni tashkil etadi. Ular quyidagi mamlakatlardan o'z safarini uyushtirgandi: Fransiya, Angliya, Turkmaniston, Rossiya, Qozog'iston, Misr, Hindiston, Afg'oniston, Germaniya kabilardir. O'zbekistonga xorijdan kelgan sayyohlarning ko'pchilik qismi qo'shni davlatdan tashrif buyurganlarni tashkil etadi.[395 -401 betlar]

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2017-yil 22-fevral kungi videoselektor natijasiga ko'ra unda xorijiy turistlar oqimini ko'paytirish va ichki turizmni yanada rivojlantirish, sayyohlik xizmatlarini yaxshilash va turlarini kengaytirish bo'yicha ko'rilayotgan choralar natijadorligi tanqidiy tahlil qilindi. Shavkat Mirziyoyev turizmning iqtisodiyotdagi o'rnini alohida ta'kidlab, mamlakatimizda bu boradagi ahvol va sohani rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan choralar samaradorligini birma-bir tahlil qildi. Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi va uning mintaqaviy tuzilmalari shtat birliklari oshirilgani, hududlarda turizm departamentlari va boshqarmalari, hokim o'rinbosarlari lavozimlari tashkil etilgani mazkur tashkilotlarning imkoniyatlarini kengaytirdi. Ushbu sohaga oid kamchiliklar qo'ldan kelgancha bartaraf etildi. Jumladan, ba'zi aviastansiyalarda chiptalar narxini qimmatligi, sayyohlar uchun yetarlicha sharoit yaratilmaganli tanqid ostiga olinib, tegishli chora-tadbirlar ko'rildi. Bundan tashqari, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2016 yil 2 dekabrda «O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoni turizm tarmog'ini jadal rivojlantirishni ta'minlash, turizmga iqtisodiyotning strategik sektori maqomini berish, mintaqalarda turizm salohiyatidan samarali foydalanishda muhim omil bo'lmoqda. Farmonda belgilab berilgan maqsadli vazifalar hamda ustuvor

yo'nalishlarni tashkil qilish va muvofiqlashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi tashkil etildi. O'tgan qisqa davr mobaynida O'zbekiston turizm salohiyatini kompleks rivojlantirishga qaratilgan 16 normativ-huquqiy hujjat qabul qilindi. Ushbu hujjatlar asosida turizm sohasi sub'yektlariga sezilarli soliq va bojxona imtiyozlari hamda boshqa yengilliklar taqdim qilindi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, bugungi kunda mamlakat iqtisodiyotini rivojlanishi, aholini turmush kechirish sharoitlarini yaxshilanishida, xalqaro maydonga chiqishi va unda munosib o'rin egallashida barcha sohalar bilan bir qatorda turizm sohasini ham o'rni salmoqlidir. Hozirda kishilar orasida turizmni keng targ'ib qilish maqsadida yurtimiz teleekranlarida O'zbekiston turizm salohiyatini, turli xil qadamjolarini, turistik maskanlarini, markazlarini, yurtimizning noodatiy, afsonaviy joylarini kecha-yu kunduz targ'ib qiluvchi, sayohatga doir turli xil ko'rsatuvlar namoyish etilmoqda, turizmni rivojlantirish bo'yicha subsidiyalar va boshqa rag'batlantirish vositalari ham qo'llanilmoqda. Xorij davlatlardagi elchilar mamlakatimiz, milliy qadriyatlarimiz targ'ibotchilari bo'lishi, bunga chet eldagi vatandoshlarimiz ham hissa qo'shish zarur.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Po'latov, Sh.N., Rabindranat Tagorning Hindiston ilm-ma'rifatga qo'shgan xissasi.// "SCIENCE AND EDUCATION" Scientific journal Volume 1, Special issue 2020 136-144 P.
2. Jurayev SH.S., Abu Ali ibn Sinoning falsafiy qarashlarida baxt-sodat masalasi //Academic Research in Educational Sciences, 2 (Special Issue 1), 395-401 P.

#### **Internet saytlari:**

- 1.O'zbekiston Respublikasiga turistik maqsadlarga kelgan va ketgan shaxslar.25.01.2021. [www.stat.u](http://www.stat.u)